

37
F-29

G'afforov Ya.

MAXSUS FANLARNI O'QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH USULLARI

O'quv qo'llanma



37
F-29


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI

G·AFFOROV Ya.

MAXSUS FANLARNI O'QITISHDA YANGI
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH USULLARI

5A120302-Tarix (yo'nalishlar va mamlakatlar bo'yicha)
magistrlar uchun o'quv-qo'llanma



Toshkent
Shafolat nur fayz
2021

11178-

UO‘K 37.091.33

KBK 74.00

G‘ 29

G‘afforov Ya.

Maxsus fanlarni o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari. [Matn] : o‘quv qo‘llanma / Ya. G‘afforov. - Toshkent: “Shafolat Nur Fayz”, 2021.-160 b.

UO‘K 37.091.33

KBK 74.00

Mazkur o‘quv qo‘llanmada yangi pedagogik va axborot texnologiya-larining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablari asosida kengayib borilayotganligi hisobga olinib, Oliy o‘quv yurtlarida o‘qilayotgan «Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi» fanini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullarini ko‘rsatib berishga harakat qilingan. Shuningdek, o‘quv-qo‘llanmada pedagogik texnologiya konsepsiyasining rivojlanish tarixi hamda maxsus fanlarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining o‘rni, ana shularga asoslangan ma‘ruza va seminar mashg‘ulotlarini o‘tkazish hamda tashkil etish uslublarini ham yoritishga xarakat qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 05.10.2020 yil 522-sonli buyrug‘iga asosan nashrga ruxsat berilgan

Taqrizchilar:

1. X.E. Yunusova, tarix fanlari doktori, professor (O‘zMU)
2. A.A. Ermetov, tarix fanlari doktori (O‘zMU)
3. J.N. Abduraxmonova, tarix fanlari nomzodi dotsent (CHDPI)

Mas‘ul muharrir: t.f.n.dotsent, O.N.Nosirov

ISBN: 978-9943-6743-3-2

© “Shafolat Nur Fayz” nashriyoti, 2021 y.
© G‘afforov Ya.

MUNDARIJA

Kirish.....	4
I BOB. Maxsus fanlarni o‘qitish texnologiyasi.....	9
1.1. Maxsus fanlarni yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitish muammolari va vazifalari.....	9
1.2. Pedagogik texnologiya konsepsiyasining rivojlanishi tarixi.....	21
1.3. Yangi pedagogik texnologiya prinsiplari.....	33
II BOB. Dars o‘tishning zamonaviy metodik, pedagogik va axborot texnologiyalari.....	48
2.1. Maxsus fanlarni o‘qitishda dars o‘tishning usul hamda uslublari va pedagogik texnologiya.....	48
2.2. Ta‘lim tizimida metodika va texnologiya uyg‘unligi.....	66
2.3. Maxsus fanlarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarining o‘rni.....	73
III BOB. Yangi pedagogik texnologiya tamoyillari.....	80
3.1. Maxsus fanlarni yangi metodik va pedagogik texnologiyalar asosida o‘rganilishi.....	80
3.2. Yangi pedagogik texnologiya tamoyillari va elementlari.....	91
3.3. Maxsus fanlarni o‘qitishda pedagogik texnologiyalarning asosiy tamoyillari va ana shularga asoslangan ma‘ruza mashg‘ulotlarini o‘tkazish.....	109
IV BOB. Tarix ta‘limida interfaol metodlar.....	116
4.1. Tarix ta‘limida yangi pedagogik texnologiyalarning roli.....	116
4.2. Maxsus fanlarni o‘qitishda interfaol metodlar asosida seminar mashg‘ulotlarini tashkil etish.....	127
Ilovalar va slaydalar.....	133
Foydalanilgan adabiyotlar.....	153

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizning barcha sohalarida bo'lgani singari ta'lim tizimida ham o'ziga xos yangiliklar qaror topmoqda. Ayniqsa ta'lim tizimini texnologiyalashtirish, ta'lim samaradorligini oshirish hamda ijtimoiy hayotimizga kirib kelayotgan yangi pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayonlariga qo'llash asosiy vazifalarimizdan biri bo'lib qolmoqda. Chunki yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini tezda qabul qilish, ularni tahlil etib, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosa chiqarish hamda talabalarga etkazib berish eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish istiqbollari uning nazariy asoslarini tanqidiy ravishda tahlil qilish, ta'lim jarayoniga nisbatan samarali yondoshuvning qaror topishi hisobiga ta'minlanadi. Ya'ni ma'lum bir vaqt oralig'ida pedagogik texnologiyaning nazariy asoslarini o'zgartirish bilan birga uning "muammo maydoni"ni ham o'zgartirish mumkin bo'ladi. Ta'lim jarayonini texnologik yondoshuv asosida tashkil etish bir qator didaktik vazifalarini ijobiy hal etishni taqozo qiladi. Jumladan, didaktik maqsadlar ruyxatini ishlab chiqish, ularga muvofiq ravishda ta'lim jarayonini loyihalash, ta'lim jarayonini loyihalashda yaxlit jarayon hamda uning bosqichlari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash, o'quvchilar tomonidan ijtimoiy tajribaning to'laqonli o'zlashtirilishi, barcha o'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalari darajalarining tenglashuviga erishish va hakozolar. Ma'lumki, har qanday pedagogik texnologiya ta'limni rivojlantiruvchi tamoyillarga asoslangan bo'lib, o'quvchi shaxsini tarbiyalashga yo'naltirilmog'i lozim. Pedagogik texnologiya nazariyasining markazida ta'lim jarayonining rahbari, ayni vaqtda, ushbu jarayonning ham sub'ekti ham ob'ekti bo'lgan o'qituvchi va talabalar turadilar. SHunday ekan, ushbu sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik, o'zaro muloqot, ularning bir-birlariga nisbatan ko'rsatadigan aks ta'sirlari eng zamonaviy talablarga javob bera olishi zarur.

Buning uchun o'qituvchi eng avvalo ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan qo'yiluvchi talablar, ta'limni tashkil etish va boshqarish tamoyillari, yo'llari, o'quvchini aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirishga xizmat qiluvchi usullar u bilan hamkorlik qilish uni o'qish va o'rganishga yo'naltirish, o'quvchi shaxsi faoliyatini to'g'ri tashkil etish, ular bilan muloqotga kirishish, pedagogik faoliyatini tashkil etish jarayonida yuzaga keluvchi muammo va kelishmovchiliklarni bartaraf etish, auditoriyada ijodiy, ishchanlik muhitini hosil qilish, o'quvchi faoliyatini hosil qilish, o'quvchi faoliyatini aniq va to'g'ri baholashga imkon beruvchi metodlar bilan qurollangan bo'lishim lozim.¹

Respublikamiz oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari-interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi talabalarni bilimli, etuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar-jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga hosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarining birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga hos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quydagilar kiradi:

- O'quvchi-talabaning dars davomida befarq bo'lmasligiga, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish;

- O'quvchi-talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini taminlaydi;

¹ O' Tolipov, M.Usmonboeva. Pedagogik texnologiyalarni tatbiqiy asoslari. T. Fan, 2006 y. 42-43 betlar R. Ishmuxamedov

- O'quvchi-talabalarning bilimga bo'lishini qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirish;

- Pedagog va o'quvchi-talabalarning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi va hokazolar.

Maxsus fanlarni o'qitishda yangi pedagogik texnologiya nazariyasini shakllantirish va undan foydalanish mexanizmini bilish ta'lim jarayonini rivojlantirish va boshqarishning eng samarali shakl va metodlarini aniqlash imkonini beradiki, buning nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyati ham beqiyosdir.

Ma'lumki ta'lim nazariyasi amaliyotida yangi pedagogik texnologiyalarni tadqiq etish ishi fanlararo (pedagogika, psixologiya, metodologiya, falsafa, tarix, sotsiologiya va boshqa fanlar) aloqadorlik va bog'liqlik asosida yondashuvni talab etadi. Ko'rsatib o'tilgan fan yo'nalishlarining har birida ta'lim texnologiyalarining ma'lum nazariy jihatlari va texnologiyani ta'lim jarayoniga tatbiq etishda alohida o'rin tutuvchi qulay shart-sharoitlarni bir qadar to'liq tahlil qilingan.

Maxsus fanlarni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarining nazariy asoslarini ishlab chiqish dolzarb vazifa sanalib, ta'lim texnologiyalarini yaratish muammolari bo'yicha olib boriladigan umumiy va amaliy tadqiqotlarga keng yo'l bergan holda ushbu nazariya mohiyatini to'laqonli aks ettiruvchi terminologiyani shakllantirishni taqozo etadi. Bugungi kunda nazariy va amaliy jixatdan puxta asoslangan umumiy ishlanmalarning mavjud bo'lishi alohida ahamiyat kasb etadi. Yoki, umumiy nazariy bazaga ega bo'lmasdan turib ayrim muammolarni, hal etish mumkin emas.

Ta'lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalarning mohiyati, ularni ta'lim jarayonida qo'llash mexanizmini ta'lim falsafasi va sotsiologiyasi qatoridan tashqarida ko'rib chiqish mumkin emas. Chunki, mazkur fanlar ta'limining jamiyat hayotidagi o'рни va roli, shuningdek, ijtimoiy vazifalarini har tomonlama

tahlil etadi, ta'lim metodologiyasi muammolarining chegarasini ko'rsatib beradi.

Umuman olganda, bugungi kunda ta'lim jarayonida interfaol usullar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundand-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishning sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki-ta'limning har bir bosqichida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sharoitlarda jamiyat munosabatlarini islox qilish, ya'ni demokratlashtirish, fuqarolik jamiyatini barpo etish, ta'limni insonparvarlashtirishga samarali ta'sir ko'rsatadigan ilmiy-amaliy asosga ega bo'lgandagina qo'llashga muvofiqdir.

Qo'llanilayotgan texnologiyalar o'qituvchi va o'quvchi hayotiga engillik olib kelishi, o'quvchining xohlab, qiziqtirib borishiga imkon berishi va jamiyat taraqqiyotining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini kafolatlashi kerak. O'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo'llanilishidan oldin moslashuvdan o'tishi pedagogik shart-sharoitlari, moddiy-texnik baza xisobga olinishi lozim. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek "Bugungi kunda oldimizda yanada muxim va dolzarb vazifalar turganini hammamiz yaxshi tushunamiz. Shu borada ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasining moddiy-texnik bazasini yanada mustaxkamlash, uning nafaqat davr bilan hamohang bo'lishini, balki zamondan oldinda yurishini ta'minlash, pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning ilg'or usullaridan keng foydalanish, bu ishlarni xorijdagi nufuzli markazlar bilan xamkorlikda olib borish, sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, o'qituvchi va domla-